

**Maktabgacha va muktab ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim,  
maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog  
xodimlarga ustama belgilashda qo'llaniladigan umumta'lim fanlari  
bo'yicha milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarni verifikatsiyadan  
o'tkazish tartibi to'g'risidagi  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom umumta'lim fanlaridan olingan xalqaro va milliy sertifikatlarni haqiqiyligini tekshirish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizom talablari Maktabgacha va muktab ta'limi vazirligi tizimida faoliyat yurituvchi pedagoglarga ustama berish uchun asos bo'luvchi sertifikatlarning haqqoniyligini tekshirish jarayoniga nisbatan tatbiq etiladi.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va muktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va muktab ta'limi boshqarmalari (keyingi o'rnlarda - hududiy boshqarmalar) Maktabgacha va muktab ta'limi vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlangan vakillar tomonidan sertifikatlarni haqiqiyligini tekshirish jarayonlari amalga oshiriladi.

4. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:  
**talabgor** - umumta'lim fanlari bo'yicha tegishli sertifikatga ega bo'lgan pedagog;

**mas'ul vakolatli tashkilot** - qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sertifikat olish uchun o'tkaziladigan imtihonlarni tashkil etishga vakolatli milliy va xorijiy tashkilot yoki uning O'zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatli vakili bo'lgan yuridik shaxs;

**sertifikat** - mas'ul vakolatli tashkilotlar tomonidan beriladigan, maxsus seriya raqamiga ega, imtihon natijasini tasdiqlovchi rasmiy hujjat;

**mas'ul xodimlar** - nazorat qiluvchi va amaliy yordam ko'rsatuvchi Vazirlik markaziy apparati va hududiy boshqarmalari mutaxassislari;

**ERP** - Maktabgacha va muktab ta'limi vazirligining Yagona elektron dasturi ([erp.muktab.uz](http://erp.muktab.uz));

**verifikatsiya** - ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan maxsus sertifikatning haqiqiyligini mas'ul vakolatli tashkilotning elektron tizimi orqali tekshirish;  
**qo'shma qaror** - O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-apreldagi 4-q/q-son va Maktabgacha va muktab ta'limi vazirligining 2024-yil 2-apreldagi 3-mh-son (ro'yxat raqami 3515, 2024-yil 29-may) qarori.

5. Umumiy o'rta ta'lim, maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarga ustama belgilashda qo'llaniladigan umumta'lim fanlari bo'yicha milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarini verifikatsiyadan o'tkazish mazkur nizomning ilovasida keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

## **2-bob. Verifikatsiyani tashkil etish va o‘tkazish**

6. Talabgor faoliyat yurituvchi umumta’lim muassasasidagi mas’ul xodimiga ERP tizimiga kiritishi uchun qo‘shma qarorda keltirilgan sertifikat aslini va ushbu sertifikat nusxasini taqdim etadi.

7. Maktab direktori yoki o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari tomonidan ushbu sertifikat nusxasini bir ish kuni ichida ERP tizimiga yuklaydi va haqiqiyligini tekshirish uchun hududiy boshqarma mas’uliga yuboradi.

8. Hududiy boshqarmalardagi mas’ul xodimlar:
  - kiritilgan hujjatlarni belgilangan talablarga mosligini o‘rganadi;
  - belgilangan talablarga mos bo‘lmagan sertifikatlarni tahrirlab maktab direktori yoki o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosariga qaytarib yuboradi;
  - kiritilgan ma’lumotlar sertifikat nusxasiga mos va haqiqiyligi tasdiqlangandan so‘ng verifikatsiyani tasdiqlaydi.

9. Sertifikatlar maktab direktori yoki o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari tomonidan ERP tizimiga yuklangandan keyin 15 kun mobaynida buyruq bilan tasdiqlangan mas’ul hududiy xodimlar tomonidan verifikatsiyadan o‘tkaziladi.

10. Maktab direktori yoki o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari tomonidan ma’lumotlar noto‘g‘ri kiritilganligi hududiy mas’ul xodimlar tomonidan aniqlanganda, yuborilgan ma’lumotlar tahrirlash uchun qaytariladi.

11. Hududiy mas’ul xodim tomonidan sertifikat tahrirlanib qaytarilganda, maktab direktori yoki o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari aniqlangan kamchilik va noaniqliklarni 3 kun muddatda to‘g‘rilab qayta hududiy mas’ulga yuboradi.

12. Umumta’lim fanlari bo‘yicha qo‘shma qarorda belgilangan minimal talablar to‘liq bajarilganda va mas’ul ijrochi tomonidan ERP tizimida haqqoniyligi tasdiqlanganda sertifikat haqiqiy hisoblanadi:

13. Agar sertifikatni haqiqiyligini verifikatsiya orqali aniqlashning imkonи bo‘lmasa, mas’ul xodimlar sertifikatni haqiqiyligini tasdiqlash uchun mas’ul vakolatli tashkilotga so‘rov yuboradi.

Yuborilgan so‘rovga 30 kun ichida javob kelmasa sertifikat haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Mas’ul vakolatli tashkilot tomonidan 30 kunlik muddatdan so‘ng sertifikatning haqiqiyligi to‘g‘risida kechikib javob olingan taqdirda hududiy boshqarmalarning mas’ul xodimi tomonidan ariza beruvchi qayta ariza berishi mumkinligi to‘g‘risida ogohlantiriladi.

14. Maktab direktori yoki o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari har bir talabgor uchun bir nafardan ortiq sertifikat kiritilmasligini nazorat qiladi.

Bunda:

sertifikatning ustama uchun amal qilish muddati tugashidan uch oy oldin talabgorni ogohlantiradi;

talabgorlar ikki yoki undan ortiq umumta’lim fanlari bo‘yicha sertifikatga ega

bo‘lgan hollarda yuqoriqoq ustama to‘lash huquqini beruvchi sertifikat yuklanishi lozimligini nazorat qiladi;

sertifikatni asl nusxasi mavjud emasligi aniqlangan hollarda, sertifikatni ERP tizimiga kiritilmasligini nazorat qiladi (sertifikatni asl nusxasi yuborilmaydigan sertifikat bo‘lgan hollar bundan mustasno).

### **3-bob. Yakuniy qoidalar**

15. Vazirlik, hududiy boshqarmalar va umumta’lim muassasasi rahbarlari o‘z faoliyatini amalga oshirishi natijasida olingan pedagoglar haqidagi ma’lumotlarning sir saqlanishini kafolatlaydi.

16. Ushbu Nizom talablari buzilishiga aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

17. Umumta’lim maktab direktori yoki o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinnbosari sertifikatlarni kiritilishida shaxsan javobgar hisoblanadi;

18. Mas’ul xodimlar lavozimini o‘zgartirganda mas’ul vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan sertifikatni haqiqiyligini tekshirishda foydalaniladigan ruxsatnomalarni Vazirlikka taqdim etishi shart.

19. Mas’ul vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan sertifikatni haqiqiyligini tekshirishda foydalaniladigan ruxsatnomalarni boshqa shaxslarga berish qat’iyan taqiqlanadi.